



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo

OpenAIRE



2025

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2-JILD 3-SON



YANGI RENESSANS

**RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI**

**2 - JILD, 3 - SON
2025**

Google Scholar

doi[®] digital object
identifier

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING SHAXSLARARO MUNOSABATI.**To'raxanova Barnoxon**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Turgunova Xaticha, Turdieva Nigora.

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti

Oligofrenopedagogika 201-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaif o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va shaxslararo munosabatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda aqli zaif bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari, ularning hissiy holati, kommunikativ ko'nikmalari va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari o'rganiladi. Shuningdek, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi, do'stlik va jamoaviy faoliyatga jalb etilish jarayoni yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu bolalar bilan ishlashda samarali metodlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstract: This article analyzes the personal characteristics and interpersonal relationships of mentally retarded students. The study examines the characteristics of psychological and social development of mentally retarded children, their emotional state, communication skills, and interactions with others. It also examines the process of their adaptation to the social environment, friendship, and involvement in collective activities. The results of the study are important in developing effective methods for working with these children.

Аннотация: В статье анализируются личностные особенности и межличностные отношения умственно отсталых учащихся. В исследовании рассматриваются особенности психологического и социального развития умственно отсталых детей, их эмоциональное состояние, коммуникативные навыки и т.д. Также изучаются процессы их адаптации к социальной среде, формирования дружеских отношений и вовлеченности в коллективную деятельность. Результаты исследования важны для разработки эффективных методов работы с этими детьми.

Kalit so'zlar: aqli zaif, shaxs, individ, o'quvchi, tadqiqot, jamoa, metod.

Keywords: mentally retarded, person, individual, student, research, team, method.

Ключевые слова: умственно отсталый, индивидуум, личность, студент, исследование, коллектив, метод.



Zamonaviy ta'lim tizimi harbir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Maxsus ta'lim muassasalarida tahsilolayotgan aqli zaif o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va shaxslararo munosabatlarini o'rganish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Aqli zaif bolalar odatiy rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan sezilarli psixologik-pedagogik farqlarga ega bo'lib, bu farqlar ularning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarida, shuningdek, shaxsiy rivojlanishida aks etadi.

Shaxs–bu ongga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada yashaydigan, ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadigan individdir. Shaxs haqida ta'rif berilganda, rus psixologi S.Y. Rubinshteynning fikrlariga to'xtalmoq kerak. Olimning ta'kidlashicha, odam o'zidagi takrorlanmas xususiyatlarga ko'ra individualdir. Odam o'z atrofida qilargalarga, borliqqa bo'lgan ongli munosabati, uning biror-bir faoliyat bilan shug'ullanishi esa uning shaxs ekanligidan dalolat beradi. Shaxs odamning atrofga bo'lgan munosabatlarini va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari uning dunyo qarashida, ishonchlarida va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida eng muhimi, uning faoliyatida ifodalanadi. Shaxs tarkib topishi uzoq muddatli, murakkab va tarixiy jarayon hisoblanadi. Shaxs xususiyatlari ruhiy jarayonlarining kechishiga ta'sir qiladi. Shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari va boshqalar barcha ruhiy jarayonlariga tanlanganlik tabiatini kasb etadi. Shaxs xususiyatlari atrof-muhitni aks ettirishda ham ahamiyatga ega. Masalan, ayrim odamlar atrof muhitni oson va tez idrok etsalar, boshqalar esa atrof-muhitni eshituv, harakat va boshqa analizatorlar yordamida idrok etadilar. Oligofrenopedagogikaning asoschilaridan biri E.Segen ta'kidlab o'tgan aqli zaif bolalardagi "xohishning yo'qligi" shaxs shakllanishida qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. L.V.Zankov ham aqli zaif bolalar shaxsidagi qator kamchiliklar haqida batafsil ma'lumotlar beradi. Aqli zaif bolalar shaxsi gidis garmoniya, nomutanosiblik ular shaxsining rivojlanishidagi yetakchi kamchiliklardandir .N.L. Kolominskiy tomonidan aqli zaif bolalar shaxsiy sifatlarining shakllanishi yordamchi maktablarda qanday kechishini qator tajriba ishlari bilan tekshiradi. Bunda, aqli zaif bolalarga sinf jamoasining ta'siri masalalari ochib beriladi. M.S. Pevzner "Aqli zaif bolalarning shaxsiy rivojlanishida ularning emotsional-irodaviy yetishmovchiligi muhim ro'l o'ynaydi" degan. U aqli zaiflikning turli shakllarini tahlil qilgan, shuningdek, pedagogic tashxis va yondashuvlarni ishlab chiqqan. Shaxsiy sifatlar va ijtimoiy moslashuv darajasiga alohida e'tibor bergan. Aqli zaif bolalar shaxsi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning rivojlanishida qiyinchiliklar kuzatiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday bolalar shaxsiy sifatlarining shakllanishi murakkab kechib, ular ko'pincha ijtimoiy moslashishda muammolarga duch kelishadi.





Shu sababli, maxsus pedagogic yondashuv va ta'lim muassasalari yordamida ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aqli zaif o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va shaxslararo munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari maxsus pedagogika va psixologiya fanlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Turli ilmiy manbalarda aqli zaif bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy moslashuvi, emotsional holati va muloqot qobiliyatlari chuqur o'rganilgan. Aqli zaif bolalarning shaxsiy rivojlanishi. Ilmiy adabiyotlarda aqli zaif bolalar (oligofrenlar) shaxsi va ularning emotsional-tarbiya jarayoni haqida keng yoritilgan (V.V.Lebedinskiy, M.S.Pevzner, S.Ya.Rubinshteyn). Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu bolalarda hissiy sohaning rivojlanishidagi buzilishlar kuzatiladi, bu esa ijtimoiy moslashuvga ta'sir qiladi. Shaxslararo munosabatlar va muloqot xususiyatlari. J.Piaget va L.S.Vygotskiy ta'limotlariga ko'ra, aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi sezilarli darajada atrof-muhit va pedagogic yondashuvlarga bog'liq. T.V.Egorova tadqiqotlarida aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlari va pedagogic ta'sir mexanizmlari tahlil qilingan. Aqli zaif o'quvchilarning emotsional-intellektual rivojlanishida ko'plab tadqiqotlarda aqli zaif bolalarning emotsional-intellektual rivojlanishi ularning ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatiga ta'sir etishi ta'kidlangan (A.R.Luriya, D.B.Elkonin, L.S.Vygotskiy). Bunday bolalarda affektiv sohaning buzilishi muloqot qobiliyatlarining sust rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Korreksion pedagogika va psixologiyaning yondashuvlarida maxsus ta'lim va korreksion pedagogika usullaridan foydalanish aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Xususan, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan logopedic mashg'ulotlar, o'yinterapiyasi, psixologik treninglar natija dorusullar sifatida qayd etilgan (N.N.Malofeev, E.A.Strebeleva). Aqli zaif o'quvchilarning shaxsi va shaxslararo munosabat xususiyatlarini o'rganish uchun empirik, eksperimental va statistic tahlil kabi ilmiy usullar ya'ni metodlar qo'llaniladi. Tabiiyki, har bir odam ma'lum shaxs sifatida odamlar qurshovida yashaydi. Oiladami, bog'cha yoki maktabdami, oliy o'quv yurtidami, ish joyidami u qandaydir odamlar guruhi, qandaydir jamoa bilan o'ziga xos munosabatga kirishadi. Guruh va jamoalar har doim o'zgarib turadi. Konkret shaxs esa, bo'layotgan o'zgarishlarga moslashib, guruh va jamoadagi odamlar bilan murakkab o'zaro munosabatlarga kirishishi kerak. Har bir shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lganligi sababli atrofdagi boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishmay turib mutlaqo yashay olmaydi. Inson shaxsining guruh va jamoadagi munosabatlarini ijtimoiy psixologiya fani o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya ta'limotiga ko'ra, ikki guruh farqlanadi. Ulardan birinchisi shartli guruh, ikkinchisi esa haqiqiy, real guruhdir. Bolalarni yosh belgilariga qarab bog'cha yoshidagi bolalar, o'rta maktab yoshidagi bolalar,





o'smirlar , katta maktab yoshidagi bolalar deb shartli guruhlariga bo'lish mumkin. Har bir shaxs o'z referent guruhiga ega bo'ladi. Referent guruhdagi odamlar shaxsga har tomonlama yoqadi,shu sababli shaxs ularni hurmat qiladi va gaplarga quloq soladi. Aqliy nuqsonli bolalar ham normal bolalar singari mehnat va o'qish faoliyatlarida munosabatga kirishadilar. Sinfda o'quvchilar faoliyat birligi, qarashlar o'xshashligi, qiziqishlarining bir-birlariga mos kelishlari bilan muomalaga kirishadilar. Shu sababli turli norasmiy guruhlar yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarning muomala guruhlarining shaklini va faoliyat ko'rsatishi o'zining qator xususiyatlariga ega. Guruhlarning sekin yuzaga kelishi,ularning turg'un bo'lmasligi, differentirlashmaganligi ajralib turadi.Aqli zaif bolalarning maktabga kelishlari bilan rasmiy guruhlariga birlashadilar. Bu bolalar bir qancha muddat bir-birlari bilan sezilarli darajada aloqaga kira olmaydilar. Ayniqsa,bu holatlar tormozlanuvchan,kaoalliglari davom etuvchi,shaxsi qo'pol buzilgan, og'ir tabiatli bolalarda ko'zga tashlanadi. Bu narsa bu ularning aloqaga intilishlarining yo'qligida, tashabbuslarning etishmoligida, bolalar bilan birgalikdagi o'yin va o'quv faoliyatlariga qiziqishlarning yo'qligida namoyon bo'ladi. Agarda normal o'quvchilarda norasmiy guruhlar faqatgina boshlang'ich sinflarda bo'lsa, aqli zaif bolalarda esa bunday turg'unsezlik yordamchi maktabni bitirgunlaricha saqlanib turadi. Shu bilan aqli zaif bolalar guruhiga ko'p hollarda o'tkinchilik va turg'unsezlik xos ekan. Aqli zaif bolalar guruhlari va jamoalarida ommaviy maktablardagidek , ish yuzasidan va shaxsiy aloqalarini shaxslararo munosabatlar quyidagi xususiyatlar borligi aniqlangan. Sinflarda har doim ham norasmiy lidirlarni aniqlash imkoni bo'lavermaydi. Aqli zaif bolalarning aqliy nuqsonlari ko'p hollarda bunga imkon bermaydi.

Xulosa: Har bir shaxs ijtimoiy mavjudod bo'lganligi sababli atrofdagi boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishmayturib mutlaqo yashay olmaydi. Inson shaxsining guruh va jamoadagi munosabatlarini ijtimoiy psixologiya fani o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya ta'limotiga ko'ra, 2 xil guruh farqlanadi. Ulardan birinchisi shartli guruh, ikkinchisi esa haqiqiy real guruhdir. Odamlarning ma'lum belgilariga, ya'ni yoshiga, jinsiga, millatiga, kasbiga qarab shartli guruhlar tashkil qilish mumkin. Ma'lumki, jamiyatda ishlab, odamlar bilan haqiqiy munosabatga kirishish yo'li bilan hosil bo'lgan guruhni real deb ataymiz. Masalan, talabalar guruhi, ishchilar guruhi, oila va shu kabilar real guruhlariga misol bo'la oladi. Shaxsning shartli va real guruhidan tashqari referent guruhi ham bo'ladi. Referent guruhdagi odamlar shaxsga har tomonlama yoqadi, shu sababli shaxs ularni hurmat qiladi va aytgan gaplariga quloq soladi. Masalan, o'smir na ota-onasi, na sinf rahbarining gaplariga mutlaqo kirmasligi mumkin. Chunki o'smirning ko'chada o'z referent guruhi bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi, sinf rahbari va ota-onalar bolalarning ishonchlarini qozonib, ular uchun referent guruh





bo'lishga harakat qilishlari zarur. Aqli zaif bolalar ham sog'lom bolalar singari mehnat va o'qish faoliyatlarida muomalaga kirishadilar. Sinfda o'quvchilar faoliyat birligi, qarashlarning o'xshashligi, qiziqishlarining bir-birlariga mos kelishlari bilan muomalaga kirishadilar. Aqli zaif bolalar orasida shunday bolalar ham borki, ularning umuman o'rtoqlari yo'q, sinfdoshlari bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan holler ham uchraydi. Maxsus maktabning har bir o'qituvchi va tarbiyachisi shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova..., "Maxsus psixologiya", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2013.
1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi" Toshkent 2016
2. Jalolov J.J. "Pedagogik psixologiya asoslari". Toshkent, 2010.
2. 4.Sultanmurodovna, K. N. (2025). Preparing Educators for an Inclusive Education Environment.
3. Spanish Journal of Innovation and Integrity,168-171

